

**ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA BO'LAJAK CHAQIRIQQA
QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK FANI O'QITUVCHILARINING
KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH
KOMPONENTLARI.**

Tojiyev Xakimjon Xoliqovich.

*Farg'onan Davlat Universiteti, Harbiy ta'lim
fakulteti, katta o'qituvchi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'qituvchining kasbiy shakllanishini ta'minlovchi talablar, harbiy ta'lim mashg'ulotlarida yangi pedagogik innovatsion texnologiyalarini qo'llash, bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatiga tayyorlashni asosiy komponentlari o'qitishning maqsad va vazifalari, o'quv materialining mazmuni, o'qitishni tashkil etish metodlari, vositalari, shakllari, o'quv jarayonining yakuniy natijalaridan iborat bo'lgan metodik tizimlar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, komponentlar, "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim", "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik", mezonlar, tamoyillar, pedagogika, texnologiya.

Zamonaviy o'qituvchining kasbiy shakllanishini ta'minlovchi talablar ikki guruhga ajratiladi;

- o'qituvchining turli darajadagi muammolarni hal etishga tayyorgarligini ta'minlovchi ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy ahamiyatga ega invariant intellektual mahorat,

- individual sifatlarining shakllanishini, tayyorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi fundamental bilimlari mazmuni va darajasiga qo'yiladigan talablar.

Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi rivojlantirish komponentlarini o'rganar ekanmiz bu sohada olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qildik.

Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda quyidagilar muhim hisoblanadi:

shaxsiy sifatlar va yo'nalganlik (ehtiyoji, qiziqishi, qadriyatları yo'nalishi, motivatsiya);

ma'lumot darajasi (bilim, ko'nikma va malakalarini doimiy ravishda boyitishga intilishi va mahorati);

tarbiyalanganligi darajasi (ma'naviy, estetik, jismoniy, kasbiy, madaniy);

ijtimoiylashish (kasbiy va ijtimoiy faoliyatini tashkil etishga tayyorligi, bilim olishni davom ettirish, ijtimoiy qoidalar va qadriyatlarni idrok qilish);

madaniyatilik (ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni idrok qila olishi, intellektual, iqtisodiy va ekologik madaniyati, aqliy, jismoniy va mehnat madaniyati, munosabatlari mazmuni va xulq-atvori).

Tizimli yondashuv texnologiyasi bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy shakllanishi muammosini tadqiq qilishning umumilmiy asosi sifatida tadqiq etilgan. Pedagogik va texnik bilimlarning integratsiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlash, uning kasbiy-

pedagogik faoliyatini modellashtirish, kasbiy tayyorlash jarayonini standartlash-tirishning metodik asoslari, kasbiy shakllanganlik darajasini baholash metodikasi va pedagogika fanlarining kasbiy shakllantirishdagi imkoniyatlari qarab o'tilgan.

Kasbiy tayyorlash muammolarining nazariy tahlili kasbiy tayyorgarlikni ta'minlaydigan ta'lif jarayonini modellashtirish, kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish va real ta'lif jarayonida joriy etishga zamin yaratdi.

Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lif o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashni asosiy komponentlari o'qitishning maqsad va vazifalari, o'quv materialining mazmuni, o'qitishni tashkil etish metodlari, vositalari, shakllari, o'quv jarayonining yakuniy natijalaridan iborat bo'lgan metodik tizim sifatida qarash mumkin.

Ana shundan kelib chiqan holda bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lif o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modelini loyihalash jarayoni quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- modelni zaruriyatini asoslash
- modelni yaratish
- modelning aniqlashtirish
- olingan model asosida bo'lajak mutaxassisni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish.

Kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodologik asosini quyidagi yondashuvlar tashkil etadi: shaxsiy, kompetentli, faoliyatli, kontekstli va boshqalar. Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lif o'qituvchisini kasbiy tayyorlash asoslarini omillar, manbalar, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, tamoyillar va yondashuvlar tashkil etadi

Shaxs nuqtai nazaridan yondashuv o'quv jarayonini loyihalash va tashkil etishda bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lif o'qituvchilarni tayyorlashda faolligiga tayanishni nazarda tutadi. U bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lif o'qituvchi shaxsining o'ziga xosligini e'tirof etishni va ta'lif jarayonida shaxsning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi. Shaxsiy-ijodiy komponent, bir tomondan, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy shakllantirish va o'z-o'zini namoyon etish yo'li bilan texnik va texnologik madaniyatni egallashning kreativ mexanizmlarini ochib beradi, boshqa tomondan esa, texnik fikrlash va dunyoqarash asoslarining shakllanganligi darajasini tavsiflaydi.

Faoliyatli yondashuv bo'lajak o'qituvchi shaxsining o'ziga xos xususiyati faoliyat jarayonida shakllanishi va namoyon bo'lishidan kelib chiqadi. O'qitish jarayoni uning barcha asosiy komponentlari, ya'ni ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, faoliyat elementlari, operatsiyalar, muvofiqlashtirish usullari, erishilgan natijalarni nazorat va tahlil qilishning birligi va o'zaro bog'liqligida quriladi. Bu asosiy komponentlar shaxsiy sifatlar asosida talablarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi. Faoliyatli komponent umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitish hamda o'quvchilarni tarbiyalash masalalarini hal etish usullarini o'z ichiga oladi.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida kompetentli yondashuvni qo'llash ta'lif jarayonining amaliy yo'nalganligini ta'minlash (kasbiy

kompetentlikni shakllantirish), shu bilan birga, amaliyotda ko‘p uchraydigan muammoli-vaziyatli masalalarni aniqlash, ularni yechish algoritmini tuzish va undan foydalanish, loyihalash faoliyatini tashkil etishga yo‘naltiradi.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash modelini ishlab chiqish “Chaqiriqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitishning ma’lum tamoyillarga asoslanadi. Tamoyil deganda asosiy qoidalar, ta’lim jarayonining maqsad va qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda, ta’lim jarayoni, mazmuni, tashkiliy shakllari va metodlarini belgilab beruvchi didaktik tizimni tushunamiz.

Amaliy yo‘nalganlik tamoyili ko‘pgina falsafiy, pedagogik, psixologik qoidalarga tayanadi: ta’lim samaradorligi va sifati amaliyotda tekshiriladi, tasdiqlanadi; amaliyot - bu haqiqat mezoni, bilish faoliyati manbai va o‘qitish natijalarini qo‘llash sohasi; to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan o‘qitish va tarbiyalash hayotning o‘zidan, amaliyotdan kelib chiqadi, u bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi, bo‘lajak mutaxassisni faol o‘zgaruvchi faoliyatga tayyorlaydi, o‘qitishni hayot, nazariya va amaliyot bilan bog‘lash ta’lim mazmuniga, qo‘llaniladigan metod va o‘qitish shakllariga bog‘liq.

Integrativlik tamoyili ilmiy-tadqiqotlar va o‘quv predmetlarining fanlararo aloqadorligini, umumkabiy va texnik fanlarni mazmuniy va tuzilmaviy-funksional birligini nazarda tutadi.

Uzluksizlik va uzviylik tamoyili Kasbiy tayyorgarlik bosqichlarining zamon va makondagi bog‘liqligini, uning butun ta’lim jarayonidagi uzluksizligini ifodalandi. Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida uzluksizlik tamoyili yangi bilim va ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich egallash, kasbiy kompetentlikni shakllantirishni hamda shaxsiy ahamiyatga ega sifatlarni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Uzluksizlikning ichki mexanizmi uzviylik bo‘lib, tayanch bilim va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishda ilgarilab ketish imkoniyatlarini nazarda tutadi.

Variativlik tamoyiliga ko‘ra bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida mazmuniy axborotni chuqurlashtirish, kengaytirish, to‘ldirishga ruxsat etiladi. O‘quv jarayonini tashkil etishda bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarning nazariy tayyorgarlik darajasi, qiziqish va moyilliklariga bog‘liq ravishda ularga individual topshiriqlarni bajarish imkoniyati beriladi.

Tabiatga moslik tamoyili bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchiga tabiatning bir qismi sifatida munosabatda bo‘lishni nazarda tutadi. Tabiatga moslik tamoyili asosida o‘qitishda bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchining jismoniy, salomatligi holati e’tiborga olinadi, anglashga, muloqotga, ijodga dominantlik (ustunlik) ehtiyojlari qondirilishi uchun sharoit yaratib berishni taqozo etadi. Yuqorida keltirilgan tamoyillardan tashqari, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchini kasbiy faoliyatga tayyorlash asosiga ta’lim mazmunini tanlash va tuzilmalashtirish (ilmilik, tizimlilik va ketma-ketlik, uzviylik, ko‘rgazmalilik) hamda ta’lim jarayonini tashkil etish tamoyillari (turli bilish faoliyatlarini optimal birlashtirish; o‘qitishning har xil shakl, vosita va metodlarini qo‘llash; shaxsning individual sifatlarini hisobga olib o‘qitishni optimallashtirish) qo‘yilgan.

Shuningdek, oliy ta'lif muassasalarida chaqiriqqacha harbiy ta'lif yo'nalishlarida o'quv jarayonini raqamlashtirish tizimi murakkab jarayon bo'lib, uni shakllanishining konseptual tamoyillari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

Maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili. Raqamlashtirgan tizim ta'lif resurslarini taqdim etadi va barcha foydalanuvchilar uchun axborot-ta'lif manbai bo'lib xizmat qiladi. Ta'lif muassasasining axborot-metodik ta'minotini o'z ichiga olgan portal universitet axborot ta'minoti va o'quv -metodik ta'minotini taqdim etadi hamda ta'lif muassasalari, ta'lif xizmatlari buyurtmachilari, ta'lifni boshqarish organlari uchun axborot-ta'lif manbai bo'lib xizmat qiladi.

Integratsiya tamoyili. Tizim ta'lif muassasaning integrallashgan axborot-ta'lif resurslari yagona manzilda joylashtiriladi, shuningdek ta'lif muassasalari resurslariga alohida murojaat yo'li ham maxsus tarzda ko'rsatiladi.

To'laqonlilik tamoyili. Soha bo'yicha o'quv-me'yoriy, metodik hujjatlar, ilmiy faoliyat, tarbiyaviy faoliyat, bitiruvchilar bazasining portalda taqdim etilishi uning to'laqonligini ta'minlaydi.

Yaxlitlik tamoyili. Portal markazlashtirilgan boshqaruv orqali axborot-ta'lif resurslarini taqdim etadi va portalning resurslarini rivojlantirish ta'lif muassasalarining resurslarini tahrirlash va joylashtirish yagona tizim asosida amalga oshiriladi.

Ochiqlik tamoyili. Ta'lif muassasalarining portali ta'lif sohasi bo'yicha ma'lumotlarni ochiq taqdim etish tizimini yaratadi va birinchi navbatda pedagogik axborot-ta'lif resurslarining ochiqligini ta'minlaydi.

Ko'rgazmalilik tamoyili. Portal metodik ta'minotida berilayogan o'quv-ilmiy resurslar matn va vizuallashtirilgan materiallarning ma'lum nisbatini saqlagan holda illustrasiyalar va kadrlar jamlanmasidan iborat bo'lishi mumkin.

Erkin boshqarish tamoyili. Talabalar kompyuter ekranidagi kadrlarning almashishini mustaqil boshqarish, zarur materiallarni istalgan marta ekranga chiqarish va nazorat topshiriqlarini bajarish orqali bilimlarini mustaqil sinash imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Moslashuvchanlik tamoyili. Portal o'quv-ilmiy resurslarni o'quv jarayonida ma'lum bir foydalanuvchining ehtiyojlariga moslanishini ta'minlaydi, o'rganilayotgan materialning murakkabligini, uning amaliy yo'naltirilganligini o'zgartirish, foydalanuvchining ehtiyojlaridan kelib chiqib, qo'shimcha illustrativ materiallarni shakllantirish imkoniyatlariga ega. Shuningdek, tizimni ishlashini yangi talablarga moslashishini ta'minlaydi. Axborot, texnik va texnologik interfeyslarga ega bo'lgan turli tizimlar bilan aloqa qilish qobiliyatining mavjudligi.

Kompyuter ko'magi tamoyili. Har bir talaba istalgan vaqtida o'quv materiallarining mohiyatiga qarab kompyuter ko'magiga ega bo'lishi mumkin.

Uzluksiz rivojlanish tamoyili. Axborot-metodik ta'minot ma'lumotlarni qayta ishslashning zamonaviy texnologiyalarini ishlatgan holda takomillashib, rivojlanib borish imkoniyatiga ega.

Modullilik tamoyili. O'zaro bog'liq va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi modullardan foydalanishni ta'minlaydi va bitta modulni boshqasiga almashtirish tizimning yaxlitligini buzmaydi.

Ishonchlilik tamoyili. Tizimning o'ziga xos elementlarini xavfsizligini ta'minlash va himoyalash va tizim barqarorligini nazarda tutadi.

Ma'lumotlarni ko'p marta foydalanish tamoyili. Tizimga axborot bir marotaba kiritiladi va bir necha marotaba turli maqsadlarda foydalanishni ta'minlaydi.

Qulaylik tamoyili. Tizim o'rnatish, o'rganish va ishga tushirish uchun oddiy va qulay bo'lishi.

Avtomatlashtirish tamoyili. Axborotni qayta ishlash texnologik jarayonining barcha bosqichlarida texnik vositalarni ishlatishi hamda qog'ozsiz texnologiyalarni yo'lga qo'yishni ta'minlashi.

Xavfsizlik tamoyili. Tizimdagi ma'lumotlarni yaxlitligi va to'liqligini himoya qiladi va ta'minlaydi.

Mobililik tamoyili. Axborot-metodik ta'minot tarkibidagi tizimlarning barchasi mobil qurilmalar uchun moslashgan va kerakli vaqtida ixtiyoriy nuqtadan ulanish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin.

Shiddatli rivojlanayotgan zamonaviy texnogen maydonda elektron ta'lim muhitini shakllanishi, shuningdek raqamli bilim va ko'nikmalarni to'g'ri o'zlashtirilishi harbiy xizmatchilar va umuman armiyani professionalligi va kasbiy mahoratini oshirishda istiqbollarini belgilovchi omillardan biri bo'lib qolmoqda.

Bo'lajak chaqiriquacha harbiy ta'lim o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashning mazmuniy-protsessual komponeti o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishdan iborat bo'lib, o'rganilayotgan kurs bo'yicha o'quv jarayoniga joriy etiladi. O'qitish jarayoni o'z mohiyatiga ko'ra, tuzilmalashtirilgan ilmiy bilimlar va faoliyat usullarini o'rgatish orqali ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirish maqsadida pedagogik jihatdan tashkil etilgan ijtimoiy jarayondir.

Bo'lajak chaqiriquacha harbiy ta'lim o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashning resursli komponenti quyidagi sharoitlarda amalga oshiriladi:

a) texnologik, eksperimental, informatsion va loyihibaviy faoliyat sohalarida amaliy ko'nikmalar shakllanishini ta'minlovchi moddiy-texnik baza;

b) ijodiy ko'nikma, texnik fikrlash va ishchanlikning rivojlanishiga imkon beruvchi muhim didaktik vositalar.

"Chaqiriqucha qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni o'qitish metodikasi" fanining o'quv-metodik ta'minoti esa interaktivlik, muammolilik va amaliy yo'nalganlik sharoitida bo'lajak chaqiriquacha harbiy ta'lim o'qituvchisi o'quv-bilish faoliyatini boshqarish bo'yicha ko'rsatmalar bilan ta'minlangan.

Shunday qilib, bo'lajak chaqiriquacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining ilmiy bilish va amaliy ko'nikmalarni muvaffaqiyatli egallashiga qaratilgan ta'lim jarayonini tashkil qilishda tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari muhim ahamiyatga ega. Chunki, o'qitish jarayonida bo'lajak chaqiriquacha harbiy ta'lim o'qituvchida onglilik, qiziquvchanlik, tartiblilik,

birgalikda ijod qilish sifatlari shakllanadi. Aniqlangan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar “Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitishda bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashni ta’minlaydi.

Bizning fikrimizcha, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlash nuqtai nazaridan qaraganda, laboratoriya -amaliy mashg‘ulotlarda individual va juftlikda o‘qitish usulini eng samarali deb hisoblash mumkin. Bunda o‘qituvchi va bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchisi muloqoti dinamik juftlikda yoki almashinuvchi tarkiblar juftligida amalga oshiriladi. O‘quv jarayonida esa o‘qitishni tashkil etishning individual shakli muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. - Toshkent, 2017 y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda, 37-son, 982-modda.

2. Haydarova.O.Q. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini ta’lim jarayoniga texnologik yondashuvga tayyorlash: Diss. ... ped. fan. nomz. – T.: 2005. – 143 b.

3. Муслимов Н.А ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. Монография-Т. Фан ва технология нашриёти. 2013 й.128 б

4. Najmuddinova.N.Y. Kollej talabalarida amaliy tayyorgarlikni shakllantirish metodikasini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish. 13.00.05- Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi.- T., 2018. -59-60-b.

5. Rafiqova.D.K. Amaliy ta’lim va faoliyat yondashuv - talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning muhim omili sifatida// MUALLIM 1 MAXSUS SON ISSN: 2181-0850 TOSHKENT-2022 62-69 b.

6. Сотволдиев А.Ю. “Чақиравга қадар ҳарбий таълимни ташкил этиш ва унинг методикаси” Ўқув қўлланма, I-II - қисмлар, 2007 йил

7. Tojiyev X. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy nizomlari fanidan darslik. Farg‘ona nashriyoti-2022 y. 90-93 b.

8. Tojiyev X. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy nizomlari fanidan o‘quv qo‘llanma. Farg‘ona nashriyoti-2022 y. 10-11 b.

9. Убайдуллаев Ш. Чакиравга қадар бошланғич тайёргарлик бўйича ўқув қўлланма II-қисм. Тошкент-2003 й.

10. Sharipov.Sh.S. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minalashning nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok. ... dis. avtoref. –T., 2012. – 46 b.